

## **KIMYO DARSLARINI YANGI METODLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH YUZASIDAN USLUBIY TAVSIYALAR**

*Namangan viloyati Pop tumani*

*70-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi kimyo fani o'qituvchisi*

***Inoyatxon Normatova Yusufjonovna***

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktab darsligidagi “Kimyoviy elementlarning davriy qonuni” darsini tashkillashtirishning amaliy ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so‘z:** kimyoviy elementlarning davriy qonuni, Dmitriy Mendeleev, Qizil va yashil kartochkalar bilan ishlash metodi.

Bugungi kunda yangi O'zbekistonning yangi avlodini shakllantirishda ta'lim standartlarining asosiy xususiyatlaridan biri talabalarning bilim, qobiliyatlari, ko'nikmalarini shakllantirishdan talaba kompetensiyasini shakllantirishga o'tishdir. Shubhasiz, "bilim, ko'nikma va malaka"ni o'qitishdan kompetensiyaga asoslangan yondashuvga o'tish ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini: mazmuni, nazorat qilish usullari va o'qitish usullarini o'zgartirishni talab qiladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvga o'tish davrida o'qitish usullarini o'zgartirishning mumkin bo'lgan yo'nalishlaridan biri ta'lim jarayonida faol o'qitish usullaridan foydalanish hisoblanadi. Ta'lim jarayoniga faol usullarning kiritilishi o'quvchilarning bilish faolligini faollashtiradi, ularning qiziqishi va ishtiyoqini oshiradi, mustaqil bilim olish qobiliyatini rivojlantiradi; iloji boricha o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida fikrmulohazalarni ta'minlaydi.

Kimyo boshqa fanlar qatori inson faoliyatining mahsuli sifatida vujudga kelib, tabiiy ehtiyojlarni qondirish, zaruriy mahsulotlar ishlab chiqarish, biridan ikkinchisini xosil qilish va, nihoyat, turli hodisalar sirlarini bilish maqsadida ro'yobga chiqdi. Davrlar o'tishi bilan kimyo fani ham o'z taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tish bilan birga, tobora jamiyat hayotining ichkarisi tomon kirib bordi va hayotimizning ajralmas qismiga aylanib qoldi. Hozirda esa shu jamiyatning

iqtisodiy jihatdan rivojlanishi uchun bu fanga bo‘lgan ahamiyat yanada ortdi. Bu yosh avlodni tarbiyalashda kimyo fani bo‘yicha bilimlarini yanada ko‘paytirishni, mavzularni to‘liq o‘rgatishni taqozo etadi. Bugungi zamon talabiga ko‘ra oddiy an’anaviy darslar ko‘zlangan maqsadga erishishimiz uchun yetarli emas. Chunki XXI asr avlodlari kundan-kunga rivojlanib borayotgan texnologiyalar davrida yashamoqda. Ularga soniyalar ichida millionlab axborotlar oqimi kelyotgan bir paytda an’anaviy mashg‘ulotlar o‘z qimmatini yo‘qotib bo‘lgan. Endilikda kimyo fani darslarini yangi, zamonaviy pedagogik metodlar asosida tashkillashtirish zamon talabiga aylandi. “Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot - ta’lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat. So‘nggi yillarda ta’lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogikpsixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta’lim beruvchi tomonidan o‘zlashtirilib va qo‘llanib borilishi ta’lim mazmunini tubdan o‘zgartirib yubordi desak mubolag‘a bo‘lmaydi”.

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqqan holda kimyo fanining asosiy mavzularidan biri bo‘lgan “Kimyoviy elementlarning davriy qonuni” mashg‘ulotini zamonaviy pedagogik metodlar asosida tashkillashtirishni ko‘rib chiqamiz. Buning uchun biz o‘zining spetsifik jihatlari bilan ajralib turadigan “Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash” metodidan foydalanamiz. Oldin

bu metodni qay tarzda olib borishni ko‘rib chiqamiz: O‘quvchilar bilan ommaviy va guruh shaklda ishlashda ushbu metoddan foydalanish ham ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

— o‘qituvchi tomonidan o‘rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi (har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi “yadro” tushunchaning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi);

— har guruhga maxsus kartochkalarning alohida majmui topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga asosan mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;

— guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo‘lingach, kartochkalarning orqa tomoni o‘giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to‘g‘ri bajarilganligi aniqlanadi.

— Agar topshiriq guruhlar tomonidan to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, yakuniy jarayonda kartochkalar orqa tomonga o‘girilganda mavzuning mohiyotini yorituvchi “yadro” tushuncha hosil bo‘ladi. Metoddan foydalanishning afzalligi shundaki, bu jarayonda o‘quvchilarda mavzuni muayyan qismlarga bo‘lib o‘rganish va qismlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik hamda aloqadorlikni tahlil va sintez asosida aniqlash ko‘nikmalari hosil qilinadi. Bunda davriy jadvaldagi elementlarning ma’lum miqdori jadvalga yozilmaydi. Chunki ularni qizil kartochkalarga yozib chiqamiz. Yashil kartochkalarga esa darsning nazariy qismiga aloqador bo‘lgan ma’lumotlarni yozib olamiz. Bunda ularni savol shaklida yoki to‘liq bo‘lmagan tarzda to‘ldiramiz. Chunki mavzu o‘qituvchi tomonidan tushuntirilib berilgandan so‘ng yashil kartochkalardan yangi darsni mustahkamlash uchun foydalanamiz. Qizil kartochkalar orqali olib borilgan jarayonda esa, o‘quvchilar elementlarning jadvalda joylashish o‘rnini yodlarida qoldirishlari bilan birga, ularda tezkor, mantiqiy fikrlash shakllanadi. Shuningdek, bu metodning ahamiyatli jihati shunda ko‘rinadiki, dars mobaynida sinfdagi o‘quvchilarning deyarli hammasi faol qatnashish imkoniga ega bo‘ladi va dars bahsmunozaralarga boy ravishda qiziqarli

hamda mazmunli o'tadi. Bu metod orqali o'qchilar davriy jadvaldagi elementlarning o'rnini nafaqat yodlab oladi, balki elementlarning o'rnini xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qolishlarini ham ta'minlab berishga erishadilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimova Madina Mo'minjon qizi. "Ta'lim jarayonida yangi metod va usullardan foydalanish" maqolasi.
2. A.Xoliqov. —Pedagogik mahoratl. -T.: Iqtisod-moliya. 2010.
3. R.Mavlonova va boshqalar. —Pedagogikal. —T.: O'qituvchi, 2008.
4. R.Mavlonova, N.Raxmankulova, N.Vohidova. —Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik. -T.: Fan va texnologiyalar. 2010.
5. J.Yo'ldoshev, F.Yo'ldosheva, G.Yoldosheva. —Interfaol ta'lim sifat kafolatil. -T., 2009.